



TADBIQ ETISH DALOLATNOMASI 12

1. Tadbiq etish lozim bo'lgan taklifning nomi (profilaktika, davolash, diagnostika usuli, qurilma, tashkiliy ish shakli):

COVID-19 infeksiyasini o'tkazgan bemorlarning kognitiv faoliyatini baholash.

2. Kim tarafidan va qachon taklif qilingan, mualliflar:

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti, (PhD) mustaqil izlanuvchi Z.B Axmedjanova, t.f.d., professor Y. N. Madjidova 2022 yil.

3. Axborot manbai (uslubiy tavsiyanoma, axborot xati, tadqiqot hisoboti, dissertasiyalar, monografiyalar, anjumanlar, konferensiyalar, seminarlar):

Uslubiy tavsiyanoma

4. Qayerda va qachon tadbiq qilindi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining 2-sonli Markaziy konsultativ-diagnostik poliklinikasida, 2022 yil. Kuzatishlarning umumiy soni: 20

Ijobiy: ha (mavjud)

Noaniqlik: yo'q

Manfiy: yo'q

5. Uslubiy tavsiyanomaning iqtisodiy samaradorligi:

MMSE shkalasining noinvaziv diagnostik imkoniyatlari tufayli COVID -19 o'tkazgan bemorlarning kognitiv faoliyati holati haqida keng ko'lamli xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu o'z navbatida, kognitiv faoliyati buzilishining erta bosqichlarda tashhislash va samarali medikamentoz davo chora – tadbirlarini amalga oshirish orqali neyrokognitiv faoliyatni me'yorlashtirishni ta'minlaydi hamda kelajakda rivojlanish ehtimoli bo'lgan qo'pol kognitiv faoliyat disfunktsiyasi profilaktikasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Kognitiv faoliyat buzilishi mavjud har bir bemorning stasionar davolanishi uchun o'rta hisobda 3,5 million so'm sarflanadi. Shu bilan birgalikda, bu bemor yiliga 2 marotaba gospitalizatsiyaga muhtojdir. MMSE shkalasi orqali COVID-19 o'tkazgan izlanuvchilarning kognitiv faoliyati uzoq muddatli, medikamentoz korrektsiya va qat'iy nazorat ostida bo'lgan bemorning stasionar davolanishi o'rtacha 2,3 million so'mga aylanadi. Bu bemor yiliga 1 marotaba gospitalizatsiya qilinib, 6 oydan so'ng unga nevrolog shifokor ko'rigi va dinamik MMSE shkalasi orqali neyrokognitiv faoliyatini nazorat bahosi kerak bo'ladi. Bunday yondashuv kelajakda, qo'pol kognitiv buzilish rivojlanishini oldini olish yo'li bilan har bir bemor uchun yiliga $4,700,000 = ((3,500,000 \times 2) - (2,300,000))$ so'mni tejash imkonini beradi.

6. Izoh, takliflar:

poliklinikani kognitiv testlar o'tkazish uchun tarqatma materiallar bilan jihozlash.

Tadbiq etish komissiyasi a'zosi

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Administratsiyasi

huzuridagi Tibbiyot bosh

boshqarmasining 2-sonli

Markaziy konsultativ-diagnostik

poliklinikasi bosh shifokor muovini

Shomansurova B.M.